O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 364.4:316.356.2

Xolida O. ZIYAYEVA,
Dotsent, O‘zbekiston Milliy universiteti Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: holidaziyaeva@gmail.com, ORCID: 0009-0000-7288-040
Ozoda MAMADIYOROVA,
Magistrant, O‘zbekiston Milliy universiteti Toshkent, O‘zbekiston

Sotsiologiya fanlari doktori A.Abdullayev taqrizi asosida

XAVF GURUHIDAGI OILALARNING IJTIMOIY-DEMOGRAFIK QIYOFASI (XALQARO TAJRIBA MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada xavf guruhidagi oilalarning ijtimoiy-demografik qiyofasi xalqaro tajriba (G‘arbiy Yevropa davlatlari, Shvetsariya, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlari) misolida keng tahlil qilingan. Tadqiqotda oila institutining zamonaviy turlari, yolg‘iz otalik va yolg‘iz onalik, iqtisodiy qiyinchiliklarning bolalar ta’limi va ruhiy salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillari ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilgan. Shuningdek, sharq mutafakkirlari (Zardushtiylik ta’limoti, Yusuf Hos Hojib, Abu Nasr Farobiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abdulla Avloniy) va klassik sotsiologlarning bola xulq- atvori va shaxsiyatining shakllanishida ta’lim-tarbiya va muhit ta’siri haqidagi qarashlari zamonaviy ijtimoiy ish metodologiyasi (L.Vigotskiy, E.Bronfenbrenner va U.Bek nazariyalari) bilan qiyosiy tahlil qilingan. Xavf ostidagi oilalar bilan ishlashda samaradorlikni oshirish, bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, farovonligini ta’minlash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Xavf guruhidagi oilalar, yolg‘iz ota, yolg‘iz ona, ajrim, zamonaviy oila turlari, xalqaro tajriba, oila instituti, bolalar farovonligi, ijtimoiy xizmat, qashshoqlik, ijtimoiy xavf.

СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИЙ ПОРТРЕТ СЕМЕЙ, НАХОДЯЩИХСЯ В ГРУППЕ РИСКА (НА ПРИМЕРЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА)

Аннотация

В данной статье на примере международного опыта (страны Западной Европы, Швейцария, Германия и страны Скандинавии) всесторонне проанализирован социально-демографический облик семей группы риска. В исследовании научно-теоретически изучены современные типы института семьи, одинокое отцовство и материнство, а также факторы влияния экономических трудностей на образование и психическое здоровье детей. Кроме того, взгляды восточных мыслителей (учение зороастризма, Юсуф Хас Хаджиб, Абу Наср аль-Фараби, Бурхануддин аль-Маргинани, Абдулла Авлони) и классических социологов на влияние воспитания и среды на формирование поведения и личности ребенка сопоставлены с современной методологией социальной работы (теориями Л. Выготского, Э. Бронфенбреннера и У. Бека). Разработаны практические предложения и рекомендации по повышению эффективности работы с семьями, оказавшимися в зоне риска, защите прав и интересов детей, а также обеспечению их благополучия.

Ключевые слова: Семьи группы риска, одинокий отец, одинокая мать, развод, современные типы семей, международный опыт, институт семьи, благополучие детей, социальная служба, бедность, социальный риск.

SOCIO-DEMOGRAPHIC PROFILE OF AT-RISK FAMILIES (BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE)

Annotation

This article broadly analyzes the socio-demographic profile of at-risk families using international experience (Western European countries, Switzerland, Germany, and Scandinavian countries). The study scientifically and theoretically examines modern types of the family institution, single-parent fatherhood and motherhood, as well as the factors through which economic hardships impact children's education and mental health. Furthermore, the views of Eastern thinkers (Zoroastrian teachings, Yusuf Khass Hajib, Abu Nasr al-Farabi, Burhan al-Din al-Marghinani, Abdulla Avloni) and classical sociologists regarding the influence of upbringing and environment on child behavior and personality formation are comparatively analyzed with modern social work methodology (the theories of L. Vygotsky, U. Bronfenbrenner, and U. Beck). Practical proposals and recommendations have been developed to increase the efficiency of working with at-risk families, protect the rights and interests of children, and ensure their well-being.

Key words: At-risk families, single father, single mother, divorce, modern family types, international experience, family institution, child welfare, social service, poverty, social risk.

Kirish. Oila butun insoniyat tarixi davomida ijtimoiy o‘rganish obyekti bo‘lib kelgan. Shu jumladan bola tarbiyasi ijtimoiy falsafiy bilimlarning markaziy mavzusi hisoblanadi. Sharq mutafakkir olimlarining ko‘plab asarlari oila tushunchasining muqaddasligini saqlab turgan sanoqli davlatlardagi baxtiyor bola, farovon jamiyat kabi tushunchalarni ushbu tatdqiqot ishida tahlil qilish uchun yo‘l boshlovchi yo‘riqnoma bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, Zardushtiylik dining muqaddas kitobi “Avesto” da “Dunyodagi eng baxtli ikkinchi joy huzurli bir oilaning yonidir” deyish bilan oilaning muqaddasligi barobarida undagi huzur- tinchlik, farovonlikning ahamiyatiga urg‘u beriladi[1].

O‘zbekiston Respublikasida oila va uning farovonligi har doim eng muhim mavzu bo‘lib kelgan. Uzoq tarihdagi oila va uning farovonligi masalasini bugungacha an’anaviy tarzda davom etib kelayotgan oiladagi er va ayol o‘rtasida huquq va burchlar taqsimotidan bilib olish mukin. Globallashuv davridagi inqirozli, umuman xavf guruhidagi oilalar bilan ishlashda esa qator qonun va qonun osti hujjatlar asosida chora-tadbirlar eja asosida olib borilmoqda. Xususan, oila munosabatlari Oila kodeksi bilan tartibga solinadi. Xavf guruhidagi oilalar bilan esa har bir o‘zini-o‘zi boshqarish organida yakka tartibda va kengash holida holatni o‘rganish va bartaraf etib, oilani mumkin qadar sog‘lom holatda jamiyatga qayta tiklash ishlari olib borilmoqda.

G‘arb davlatlarida erkinlik va rivojlanish aholining asrlardir davom etib kelgan qadriyatlarini qaytadan shakllantirdi. Yangi turdagi oila modellarining yuzaga kelib, normallashtirilishi oila tushunchasini butunlay o‘zgartirib yubordi. Sharq davlatlaridan farqli o‘laroq g‘arb davlatlarida demografik muammolar ham xavf guruhidagi oilalar vaziyati bilan bog‘liq, ya’ni tug‘ilish soni kamligi, qarish darajasi balandligi va umr ko‘rish ko‘rish yoshining oshishi kabi omillar yaqin 25-30 yil

ichida mahalliy aholi soning o‘ta kam songa tushib ketish xavfini orttirish barobarida ishga yaroqli aholi sonini kamaytirib, boqimandalikni kuchaytirishi mamlakat iqtisodiy ahvolini ham qiyinlashtirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola orqali xavf guruhidagi oilalarning ijtimoiy-demografik qiyofasini xalqaro tajriba asosida ochib berish, oila institutidagi zamonaviy o‘zgarishlar, iqtisodiy qiyinchiliklarning bolalar ta’limi hamda ruhiy salomatligiga ta’sirini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish shuningdek, xavf ostidagi oilalar bilan ishlash samaradorligini oshirish, bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ularning farovonligini ta’minlash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda qiyosiy tahlil metodi qadimiy ma’rifiy-falsafiy yondashuvlarning bugungi zamonaviy ijtimoiy ish nazariyalari bilan bog‘liqligini ochib berishga xizmat qilgan. Kontent- tahlil metodi xorijiy tajribadagi ijtimoiy muammolar (qashshoqlik, yolg‘iz ota-onali oilalar, bolalar farovonligi) va ularning yechimlarini o‘rganish imkonini berdi. Statistik ma’lumotlar tahlili muammoning ko‘lami va uning jamiyatdagi real holatini raqamlar orqali asoslash uchun qo‘llanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Qutadg‘u bilig yohud ahloq” asarida Yusuf Hos Hojib (1019- 1077) tarbiya topgan bolaning kelajagi boshidan ma’lum bo‘lishini asar qahramonlari siyratida tahlil qilib bergan. Davlat va jamiyat qurilishi, komil inson tushunchasi targ‘ibotini to‘rt ramziy qahramon Kuntug‘di (adolat), Oyto‘ldi (baxt), O‘gdulmish (aql)va O‘zg‘urmish (qanoat) timsollari orqali ifoda qilingan[2]. Yusuf Hos Hojib bola tarbiyasining mumkin qadar erta yoshda boshlanishi kerakligini ta’kidlaydi. Asarda bolaning ulg‘ayayotgan muhiti uning kelajakdagi hatti- harakatlariga, ahloqiy normalarining shakllanishiga asos bo‘ladi deb hisoblaydi. Shu sababdan bolani tergab turish, uning bo‘sh vaqtlarini hunar va bilim o‘rganish bilan to‘ldirish kerakligiga urg‘u beradi. Bu esa zamonaviy ijtimoiy lug‘atlarda uchraydigan modellashtirish (modeling) terminining tarihiy o‘zagi vazifasini rolini o‘ynaydi.

Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” (870–950) asarida odamlarning farovon jamiyatda yashash uchun o‘zaro birlashishlari va bir- birlariga yordam berishlari kerakligi insonlikning asosiy tamoyillari orasida keltirilgan. Unga ko‘ra ta’lim beruvchi ustoz bolaga o‘rgatadiganlarini shaxsan yashab ko‘rgan bo‘lishi- ya’ni o‘rgatganlariga o‘zi amal qilaolishi kerak[3]. Ta’lim beruvchi esa tarbiya va ta’limning unrbod davom etadigan jamiyatning barkamollashuv jarayoni ekanligini hisobga olib faqat ma’lum ta’lim muassasidagi o‘qituvchilar, balki butun ijtimoiy ekosistema a’zolari hosoblanadi.

Burhoniddin Marg‘inoniyning (1123-1197) “Hidoya” asari ham XII asrdan e’tiboran huquq sohasida asosiy manba bo‘lib xizmat qilib kelgan. Bir bola tarbiyasi ustida oila va uning mas’uliyati, jamiyat o‘laroq javobgarlik kabi jihatlar asoslab berilgan. Xavf guruhidagi oilalarda, ayniqsa funksional to‘liqsiz oilalarda bola tarbiyasida yo‘l qo‘yiladigan xato-kamchiliklarni yoritishda ushbu asar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Sa’diy SHeroziynıng “Guliston va Bo‘ston”i da bola tarbiyasi va tug‘ma ahloq mavzusiga alohida urg‘u beriladi. Bundan tashqari shaxs shakllanishida muhitning ta’siri ochiq bayon qilinadi[4].

Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yohud ahloq” asarida tarbiyaning qay darajada ahamiyatli ekanligidan tortib, tarbiya beruvchilarning ahloqi haqidagi fikirlari ushbu tadqiqot mavzusini sharq madaniyati bo‘yicha tahlil qilishda eng muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Unga ko‘ra namunali xulq- atvor sohibi bo‘lmagan ota- onaning boladan ijobiy xatti- harakatlar kutishi natijasizdir[5].

Klassik sotsiologiya olimlari bolaning atrofida o‘rab turgan muhit bolaning ruhiy va fiziologik rivojlanishidagi muammolarga sabab bo‘lishini tadqiqotlar yordamida isbotlagan. Ushbu tadqiqotlar sharq falsafiy olimlarining izlanishlari bilan biriktirilganida tadqiqot ishining borish yo‘li aniq bo‘ladi. Masalan, L.Vigotskiy (1896-1934) ning “Tafakkur va nutq” asariasosida xavf guruhidagi oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning xulq-atvoriga ijobiy ta’sir qilishda ijtimoiy xodimlar va pedagoglarning rolini tahlil qilinadi[6].

Bolaning xulq-atvoriga ijobiy ta’sir qilish uchun bolaning o‘zi bilangina ishlash yetarli emasligi, bolaning ichida bo‘lib turgan muhitining unga ta’sirlarini ochiqlash uchun Bronfenbrenner (1917-2005) ning ekotizim modelidan foydalaniladi.

Ulrix Bekning (1944-2015) “Xavf jamiyati” asari jamiyatdagi turli xatarlarning xarakteristikasini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi[7].

Latipova N.M., Axmedova D.O. “Ijtimoiy ish nazariyasi” kitobida tadqiqot obyekti bo‘lgan xavf guruhidagi oila turlari va ular bilan ijtimoiy ish olib borish yo‘nalishlari batafsil ko‘rib o‘tiladi.

Tahlil va natijalar. 1960- yildan buyon nikoh qurish soni ikki barobarga kamayib, ajralishlar sonining aksincha 2 barobar oshgani kuzatilmoqda. Vaziyatga ko‘ra nihoksiz tug‘ilgan farzandlar soni ham umumiy bolalar sonining 42% ini tashkil qilmoqda. Bundan tashqari yolg‘iz ota- onali va qarovga muhtoj qariyasi bor oilalar doimiy manzilli yordamga muhtoj bo‘lib qolmoqda.

	Muammo mazmuni	Statistik ko‘rsatkich / Foiz	Hudud/ Davlat	Izoh
	Yevropa Ittifoqi bo‘ylab yolg‘iz ota-onali oilalar ulushi (2021)	Shvetsariya	34%	Bolali oilalar orasida yolg‘iz ota yoki ona boshqaradigan oilalar
	Yolg‘iz ota-onali oilalar ulushi (2021)	Daniya	29%	Bolali oilalar orasida yolg‘iz ota yoki ona boshqaradigan oilalar
	Yolg‘iz ota-onali oilalar ulushi (2021)	Estoniya	28%	Bolali oilalar orasida yolg‘iz ota yoki ona boshqaradigan oilalar
	Yolg‘iz ota-onali oilalar ulushi (2021)	Latviya va Litva	25%	Bolali oilalar orasida yolg‘iz ota yoki ona boshqaradigan oilalar
	Yolg‘iz ota-onali oilalar ulushi (2021)	Fransiya	21%	Bolali oilalar orasida yolg‘iz ota yoki ona boshqaradigan oilalar

Yolg‘iz ota-onali oilalar 2021-yilda Yevropa İttifoqi davlatlari bo‘ylab quyidagi ko’rsatkichlarni qayt etgan: Shvetsiyada 34%, Daniyada 29%, Estoniyada 28%, Latviyada va Litvada 25% Fransiyada 21% ya’ni bolalar bor oilalarning har beshtasidan biridan ko‘prog‘ini yolg’iz ota yoki ona boshqargan. Xorvatiya 5%, Ruminiya 7% va Finlyandiya 8% bilan eng past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bo‘lsa, Gretsiya, Slovakiya, Malta, Polsha va Ispaniyada bu ko‘rsatkich 9 % tashkil etgan[8].

Shvetsiya dunyo bo‘ylab oila siyosati bo‘yicha eng ilg‘or davlatlardan biri hisoblanadi. Bu mamlakatda dunyoda birinchi bo‘lib mehnat bozoridagi tenglik va bola tarbiyasida tomonlarning teng ishtirokini ta’minlash maqsadida perinatal davrda otalarga majburiy pullik ta’til belgilangan. Yevropa davlatlarida erta yoshdagi bolalarning 58%i ECEC (erta yoshdagi bolalar parvarishi va ta’limi) dan foydalanganligi aniqlangan. Bu ko’rsatkich 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davr uchun 92% ni tashkil qiladi. Shvetsiyada esa yosh bolali oilalarda bola bilan shug‘ullanuvchi alohida qarovchi bo‘lib ishsizlik yoki to‘liq bo‘lmagan ish kuni sababli oilaning iqtisodiy qiyinchalikka tushish xavfiga qarshi hamda erta yoshdagi bolalarga kafolatlangan xizmat ko‘rsatish maqsadida arzon va sifatli maktabgacha ta’lim tizimi tashkil etilgan bo‘lib, boxchalarga davlat tomonidan subsidiya beriladi va to‘lovlar oilalarning daromadidan kelib chiqib belgilanadi. Maktabgacha ta‘lim (förskola), shuningdek, kunduzgi parvarish (dagis) deb ham ataladi, 1-6 yoshdagi bolalar uchun mavjud (bugungi kunda 1-5 yoshdagi bolalar uchun amal qiladi). U 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun haftasiga 15 soatgacha bepul. Aks holda, to‘lovlar ota-onalarning daromadiga mutanosib (lekin oyiga maksimal 150 yevro bilan cheklangan) va oiladagi bolalar soniga

teskari proportsionaldir . To‘lov oilaning oylik daromadining 3 foizigacha bo‘lishi mumkin. Biroq, bolalarni parvarish qilish yuqori darajada subsidiyalanadi va ota-onalarning to‘lovlari ‘rtacha hisobda maktabgacha ta’lim muassasasiga joylashtirishning haqiqiy xarajatlarining atigi 10 foizini qoplaydi[9].

Sohadagi eng ilg‘or mamalakatlardan bo‘lishiga qaramay oilaning yangi modellari va ularning o‘zgaruvchan ehtiyojlari bu davlatda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Jumladan sheriklikda-nikohsiz juft ‘lib yashash muammosi ajralish holati bo‘lgan taqdirda mol- mulk huquqi rasmiy oilaga nisbatan farqli tashkil etiladi. Bunda masalan uy-joy tomonlar birgalikda yashashi uchun shartnomadan so‘ng olingan bo‘lsagina mulk umumiy hisoblanib, ajrashish bo‘lishidan avval tomonlar yozma ravishda kelishuv imzolashlari mumkin. Sud bunday ajrim paytida zaif tomon foydasiga qaror chiqarishi mumkin, ammo bu aksariyat hollarda o‘rtada farzand bo‘lsagina amal qiladi[10].

BMTning Inson taraqqiyoti indeksi (BMTTD, 2025) bo‘yicha eng yuqori o‘n ikkita davlat qatoriga kirgan Daniya, Finlyandiya, Islandiya, Norvegiya va Shvetsiyadagi bolalarning katta qismi doimiy ravishda past daromadli oilalarda o‘sadi va bu xavf notekis taqsimlangan[11].

Ajrim holatidagi oilalarda bolalarning ham ota ham ona bilan barqaror munosabat o‘rnatishni ta’minlashga qaratilgan choralar ko‘riladi. Ajralish ota/ onalikni tugatmaydi- Germaniya modelida ajrimdan keyin vasiylik birgalikda qoladi. Har bir bola ikkala ota- onasi bilan ham barqaror va xavfsiz aloqada bo'lish huquqiga ega. Bunday vaziyatlarda ota- onalarning muammolaridan qat’i nazar bola manfaatlari birinchi o‘ringa qo‘yiladi. BGB 1631-moddasi 2-qismiga ko‘ra bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga bo‘lgan xavfni hisobga olib

Bola zo‘ravonlik, jismoniy jazo, ruhiy azob va boshqa qadr-qimmatni kamsituvchi choralardan xoli ravishda parvarish qilinish va tarbiyalanish huquqiga ega. Germaniyada ham ko‘plab davlatlarda bo‘lgani kabi xilma-xil yangi oila modellari qonunchilik va hukmron me’yorlar orasida tafovutlarni keltirib chiqaradi. Masalan o‘gay ota/ onali oilada asosan otalikni belgilashda muammolarga duch kelinadi. Bunda qonunga ko‘ra biologik ota otalik da’vosi ochishi mumkin ammo bola allaqachon o‘gay ota bilan yaxshi munosabat qurib ruhan bog‘langan, bu da’vo bolaning ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir qiladi deb hisoblansa otaning e’tiroz bildirish huquqi cheklanadi, hattoki sud DNK testini ham rad qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xavf guruhidagi oilalarning ijtimoiy-demografik qiyofasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy jamiyatda oila institutining an’anaviy modellari o‘zgarib, yolg‘iz ota-onali, turli xil ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga duch kelayotgan va qashshoqlik xavfi ostida yashayotgan oilalar ulushi ortib bormoqda. Xususan, G‘arbiy Yevropa, Shvetsariya, Germaniya va Skandinaviya davlatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy inqirozlar, oilaviy ajrimlar, ota-onalarning bandligi yoki ijtimoiy muammolar (masalan, ruhiy tushkunlik, giyohvandlik yoki beparvolik) bevosita bolalarning ruhiy salomatligi, ta’lim olishi va kelajakdagi ijtimoiy moslashuviga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, sharq mutafakkirlarining tarbiya va muhit uyg‘unligiga asoslangan qadimiy qarashlari zamonaviy ijtimoiy ish metodologiyalari (L.Vigotskiy, E.Bronfenbrenner va U.Bek nazariyalari) bilan uyg‘unlashib, bolalar farovonligini ta’minlashda faqatgina oilaning o‘zi emas, balki butun ijtimoiy ekosistema va davlat siyosati birdek mas’ul ekanligini ko‘rsatib beradi. Qonunchilik va amaldagi ijtimoiy xizmatlar tizimi oilaviy xilma-xillikning yangi shakllariga moslashib borishi zarurligi dolzarb masalaga aylangan.

Zamonaviy oila modellarining (masalan, yolg‘iz ota-onalar, o‘gay ota-onalik yoki aralash oilalar) huquqiy maqomini aniqlashtirish, xususan, bolaning huquqiy manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘ygan holda qonunchilikdagi nomutanosibliklarni bartaraf etish sohadagi huquqiy muammolarni tartibga solish va bartaraf qilishning eng samarali yechimlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Ajrimlardan keyin ham ota-onalarning bola tarbiyasidagi birgalikdagi mas’uliyatini (Germaniya va Shvetsariya tajribasidagidek) huquqiy jihatdan kuchaytirish masalasi sharq davlari sharoitida ko‘rib chiqilishi va takomillashtirilishi ajrimli oila farzandlari bilan ishlash muammolarida tubdan burilish yasaydi.

Xavf guruhidagi xususan kam daromadli oilalarning farzandlari uchun sifatli maktabgacha ta’lim va sog‘lik xizmatlarini subsidiyalash, ularning qamrovini kengaytirish hamda oilalarning iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda imtiyozlarni joriy etish har bir jamiyat uchun zarurat holiga kelgan ekan ushbu tizimlarni takomillashtirish choralari qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Qashshoqlik va ijtimoiy chetlanish xavfi yuqori bo‘lgan oilalar uchun ijtimoiy xodimlar, psixologlar va pedagoglarning hamkorligini kuchaytirish zarur. Ota-onalarning ruhiy salomatligi buzilgan yoki giyohvandlikka moyilligi bor oilalardagi bolalarni erta aniqlash va ularni muhofaza qilish bo‘yicha maxsus erta ogohlantirish (profilaktika) dasturlarini joriy qilish kerak. Xususan oila institutini mustahkamlash uchun qadriyatlar asosida targ‘ibot- tashviqot ishlari ko‘lami kengaytirilishi, Sharqona tarbiya an’analari va zamonaviy ijtimoiy ish metodlarini uyg‘unlashtirish sohada sezilarli darajada ilgarilashlarga sabab bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Mecûsîlik‘te Aile ve Ahlak Anlayışı Oğuz-Türkmen Araştırmaları Dergisi (OTAD) IX, 2, 2025, Aralık, 7-bet URL/https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/5435236
2. Qutadg‘u bilig , “O‘zbekiston” T., 2022 URL: https://library.samtuit.uz/media/book/file/1683094210.pdf 55-bet
3. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2016 238 b.
4. Sa‘diy Sheroziy “Guliston va Bo‘ston”. – Toshkent: “Yoshlar matbuoti”, 2025. 32- 36 b
5. Abdulla Avloniy, “Turkiy Guliston yohud ahloq” “Yoshlar matbuoti”, 2024. - 64-65 b URL: https://ipkmvd.uz/media/pdf/kitoblar/Turkiy_Guliston_Abdulla_Avloniy
6. Vigotskiy L.S. Мышление и речь (Tafakkur va nutq). – Moskva: Labirint.
7. RISK SOCIETY Ulrich Beck 154-bet http://www.riversimulator.org/Resources/Anthropology/RiskSociety/RiskSocietyTowardsAnewModernity1992Beck.pdf
8. https://coface-eu.org/2025-insights-on-family-policies-european-observatory-on-family-policy/
9. https://coface-eu.org/preventing-family-poverty-a-pillar-of-social-and-economic-resilience-2/
10. https://splash-db.eu/policydescription/family-policies-sweden-2014/
11. Oilaviy siyosat: Shvetsiya (2014) https://splash-db.eu/policydescription/family-policies-sweden-2014/#:~:text=Sweden%20was%20the%20first%20country%20in%20the,market%20work%20for%20both%20women%20and%20men